



TALABALARDA IJTIMOIIY YETUKLIKNI OSHIRISHDA TIL O'RGANISHNING AHAMIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raximova Nazokatxon Kasimdjonovna

Renessans ta'lim universiteti

Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi, (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933115>

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o'rganishning talabalarda ijtimoiy yetuklikni shakllantirishdagi psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Chet tilini o'rganish jarayonida shaxsning o'ziga ishonchi, kommunikativ kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot va empatiya ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, til o'rganish motivatsiya, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiruvchi psixologik omil sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: til o'rganish, ijtimoiy yetuklik, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, psixologik omillar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности изучения языка в формировании социальной зрелости студентов. Изучение иностранного языка способствует развитию уверенности в себе, коммуникативной компетенции, навыков межкультурного общения и эмпатии. Также язык рассматривается как психологический фактор, повышающий мотивацию, эмоциональный интеллект и социальную адаптацию личности.

Ключевые слова: изучение языка, социальная зрелость, мотивация, коммуникативная компетентность, психологические факторы.

Annotation: This article analyzes the psychological characteristics of language learning in the development of students' social maturity. Learning a foreign language enhances self-confidence, communicative competence, intercultural communication, and empathy. Moreover, language learning is viewed as a psychological factor that strengthens motivation, emotional intelligence, and social adaptability.

Keywords: language learning, social maturity, motivation, communicative competence, psychological factors.

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy yetukligi uning kommunikativ qobiliyatlari, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi va o'z fikrini erkin ifoda etish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, til o'rganish jarayoni talabalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Til bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki inson tafakkuri, hissiyati va ijtimoiy tajribasini ifoda etuvchi asosiy psixologik mexanizmdir. Bugungi globallashuv davrida bir nechta tilni bilish insonning ijtimoiy faolligini, moslashuvchanligini va raqobatbardoshligini oshiruvchi omilga aylangan. Talaba yangi tilni o'rganar ekan, u nafaqat lingvistik bilimga ega bo'ladi, balki o'zini anglash, o'z fikrini boshqalar bilan muvofiqlashtirish, turli madaniy qadriyatlarni qabul qilish kabi psixologik ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.



Psixologik jihatdan olganda, til o'rganish motivatsiya, emotsional intellekt, o'ziga ishonch va empatiya kabi shaxsiy sifatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, chet tilini o'rganish jarayonida shaxs o'zining hissiy tajribalarini boshqarishni, ijtimoiy vaziyatlarga moslashishni va ijobiy muloqot muhitida faol bo'lishni o'rganadi. Bu jarayon ijtimoiy yetuklikning eng muhim tarkibiy qismi o'zini jamiyatda anglash va samarali munosabatlar o'rnatish qobiliyatini kuchaytiradi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, oliy ta'lim tizimida til o'qitish jarayoni ko'pincha grammatik va lingvistik yondashuv bilan cheklanadi. Biroq psixologik yondashuv til o'rganishni shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik va emotsional barqarorlikni shakllantiruvchi jarayon sifatida tahlil etadi. Shu boisdan, talabalarda ijtimoiy yetuklikni oshirishda til o'rganishning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish bugungi kunda pedagogik va psixologik fanlar uchun dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

1. Til o'rganish va ijtimoiy yetuklik o'rtasidagi bog'liqlik. Til o'rganish jarayoni shaxsning ijtimoiy tajribasini boyitadi, u orqali inson o'zini jamiyatda anglaydi va o'z o'rmini topadi. Ijtimoiy yetuklik bu shaxsning o'zini boshqarish, mas'uliyatni his etish, mustaqil fikrlash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Chet tilini o'rganayotgan talaba yangi madaniyatlar, qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar bilan tanishadi, bu esa uning dunyoqarashini kengaytiradi. Tilni o'rganish orqali talaba o'zining ijtimoiy moslashuvchanligini, bag'rikengligini va madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Bu jihatlar shaxsning ijtimoiy yetukligini oshirishda asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

2. Til o'rganishdagi psixologik motivatsiya va uning ahamiyati. Motivatsiya — bu shaxsni faoliyatga undovchi ichki psixologik kuchdir. Til o'rganishda motivatsiya markaziy rol o'ynaydi, chunki tilni o'zlashtirish uzoq muddatli, sabrtoqat va qat'iyat talab qiladigan jarayon. Ichki motivatsiya (ya'ni o'zini rivojlantirishga, bilishga bo'lgan ichki ehtiyoj) bo'lgan talabalarda til o'rganish jarayoni samaraliroq kichadi.

Motivatsiyaning yuqori darajasi talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini, maqsadga yo'naltirilganligini va ijtimoiy faolligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga zamin yaratadi. Psixologik jihatdan ijobiy motivatsiyaga ega bo'lgan shaxs o'z fikrini erkin ifoda etadi, muloqotda faol ishtirok etadi va o'zaro hurmatga asoslangan ijtimoiy aloqalarni shakllantira oladi.

3. Emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiya. Til o'rganish jarayoni emotsional intellekt ya'ni shaxsning o'z hissiyotlarini boshqarish va boshqalarni his etish qobiliyatini rivojlantiradi. Chet tilida muloqot qilish jarayonida talaba boshqalarning kayfiyatini, emotsiyalarini tushunishga o'rganadi, bu esa empatiya va ijtimoiy sezgirlikni oshiradi.



Shuningdek, til o'rganish kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Talaba muloqotda o'z fikrini aniq ifoda etish, tinglash, bahslashish, murosaga kelish kabi ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu ko'nikmalar ijtimoiy yetuklikning asosiy tarkibiy qismidir. Emotsional intellekti rivojlangan talaba jamoada faol, hamkorlikka ochiq va stress holatlarida barqaror bo'ladi.

4. Til o'rganishning shaxsiy o'sish va ijtimoiy moslashuvdagi roli. Til o'rganish nafaqat intellektual faoliyat, balki shaxsiy o'sishning psixologik mexanizmi hamdir. Yangi tilni o'rganish jarayonida talaba o'z imkoniyatlarini kashf etadi, yangi vaziyatlarga moslashadi, o'ziga nisbatan ishonchni oshiradi. Bu jarayonda mustaqil fikrlash, o'z fikrini asoslash, yangicha tafakkur yuritish, o'zini baholay olish kabi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar shakllanadi. Shuningdek, til o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishgan talaba o'z-o'zini qadrlash hissini kuchaytiradi, bu esa ijtimoiy yetuklikning muhim psixologik asosi hisoblanadi. Shu tariqa, til o'rganish shaxsning o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Til o'rganish jarayoni shaxsning faqat bilim va ko'nikmalarini emas, balki uning ijtimoiy-psixologik sifatlarini ham shakllantiradi. Chet tilini egallash orqali talaba o'zining kommunikativ kompetensiyasini kengaytiradi, ijtimoiy rollarni angelaydi, madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etadi. Bu jarayon talabalarda empatiya, bag'rikenglik, o'ziga ishonch, hamkorlik va moslashuvchanlik kabi muhim ijtimoiy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, til o'rganish bu shaxsning o'zini anglash, hissiy muvozanatni saqlash va ijtimoiy muhitda faol ishtirok etish jarayonidir. Til orqali inson o'z fikrini ifoda etish, boshqalarni tushunish, ijobiy muloqot o'rnatish va shaxslararo muvozanatni saqlashni o'rganadi. Shunday qilib, til o'rganish jarayonini faqat lingvistik faoliyat sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik rivojlanishning integral qismi sifatida baholash zarur. Oliy ta'lim tizimida til o'qitish jarayonini shaxsni ijtimoiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, muloqotda faol va psixologik jihatdan barqaror etib tarbiyalashga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.
2. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020). Toshkent.
5. Karimova, V.M. (2017). *Shaxs psixologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.



FILOLOGIK TADQIQOTLAR TARAQQIYOTI VA TA'LIM MUAMMOLARI



MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

6. Ushinskiy, K.D. (1950). *Chelovek kak predmet vospitaniya*. Moskva: Pedagogika.
7. Abdullayeva, M. (2021). "Til o'rganishning psixologik omillari." *Ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, №2, 45–52-betlar.